

1920-1924 YILLAR TARIXIY GEOGRAFIYASI (BXSR VA XXSR MISOLIDA)

Yuldosheva Bibirajab

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d (PhD).

Raximova Dilnoza

Buxoro davlat universiteti tarix ta'lim yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Turkiston hududida sovet hokimiyati o'rnatilganidan keyingi dastlabki yillarda yuz bergan hududiy-siyosiy o'zgarishlarning tarixiy geografik manzarasini tahlil etadi. Tadqiqotda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR)ning siyosiy-hududiy chegaralari, ma'muriy bo'linmalaridagi o'zgarishlar, iqtisodiy rayonlashuv jarayonlari, aholi joylashuvi va ko'chish harakatlari chuqur tarixiy-geografik manbalar asosida yoritiladi. Muallif arxiv hujjatlari, o'sha davr kartografik materiallari, mahalliy va markaziy nashrlarda chop etilgan ma'lumotlar hamda sovet hukumatining dastlabki ma'muriy islohotlariga doir qarorlar asosida mintaqaning geosiyosiy muhitida yuz bergan transformatsiyalarni ilmiy tahlil qiladi.

Maqolada BXSR va XXSRning sovetlashtirish siyosati ta'sirida kechgan hududiy qayta tashkilotlar, yangi ma'muriy birliklarning joriy etilishi, iqtisodiy infratuzilma va transport yo'llarida kuzatilgan o'zgarishlar, shuningdek, etnik tarkibning hududiy joylashuviga ta'sir etgan demografik omillar alohida o'rin egallaydi. Tadqiqot natijalari 1920–1924 yillarda mintaqaning siyosiy-iqtisodiy geografik qiyofasi qanday shakllanganini ko'rsatib, BXSR va XXSR misolida Markaziy Osiyoda sovet hududiy siyosatining ilk bosqichlarini tarixiy-geografik yondashuv asosida qayta talqin etadi.

Kalit so'zlar: *Yosh xivaliklar, Xalq Nozirlar Kengashi, Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi, Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, Qizil armiya, RSFSR*

АННОТАЦИЯ

Статья «Историческая география 1920–1924 годов (на примере БНСР и ХНСР)» посвящена анализу территориально-политических изменений в Туркестанском регионе в первые годы становления советской власти. В исследовании рассматриваются особенности формирования границ Бухарской Народной Советской Республики (БНСР) и Хорезмской Народной Советской Республики (ХНСР), трансформация административно-территориального деления, процессы экономического районирования, размещение населения и миграционные движения. Работа основана на архивных документах,

картографических материалах того периода, публикациях центральной и местной прессы, а также нормативных актах, отражающих особенности ранних советских административных реформ.

В статье подробно раскрываются изменения в территориальной организации БНСР и ХНСР под влиянием политики советизации, создание новых административных единиц, развитие инфраструктуры и транспортных путей, а также демографические факторы, повлиявшие на этническое и пространственное распределение населения. Полученные результаты позволяют реконструировать политико-географический облик региона в 1920–1924 годах и представить ранние этапы советской территориальной политики в Центральной Азии через призму историко-географического анализа.

Ключевые слова: Молодохивинцы, Совет Народных Комиссаров, Бухарский Совет Народных Комиссаров, Центральный Исполнительный Комитет, Красная Армия, РСФСР.

KIRISH.

XX asrning 20-yillari Markaziy Osiyo tarixida tub geosiyosiy o'zgarishlar yuz bergan davr sifatida ajralib turadi. 1920 yilda Buxoro amirligi va Xiva xonligining tugatilishi natijasida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR)ning tashkil topishi mintaqaning tarixiy geografik manzarasini keskin o'zgartirdi. Mazkur davlatlarning siyosiy-hududiy tuzilishi, ma'muriy boshqaruv tizimi, aholi joylashuvi va tabiiy-iqtisodiy hududlar bo'yicha rayonlashuvi sovet hokimiyatining ilk bosqichdagi hududiy siyosati bilan bevosita bog'liq holda shakllandi. Bu jarayonlar, ayniqsa, 1920–1924 yillar oralig'ida yangi chegaralarning belgilanishi, ma'muriy birliklarning qayta tashkil qilinishi va sovetlashtirish siyosatining hududiy qiyofaga ko'rsatgan ta'siri orqali yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

BXSR va XXSRning qisqa vaqt ichida o'zgaruvchan siyosiy vaziyat ta'sirida takror-takror tuzilmasi qayta ko'rib chiqilgan hududlar sifatida shakllanishi ularning tarixiy geografiyasini alohida ilmiy tadqiqot mavzusiga aylantiradi. Chunki mazkur yillarda sovet hukumatining maqsadi faqat yangi ma'muriy tizim yaratish emas, balki mintaqani iqtisodiy, ijtimoiy va etnodemografik jihatdan qayta shakllantirish edi. Hududiy bo'linmalarni qayta belgilash, aholi joylashuvining o'zgarishi, transport yo'llarining qayta yo'nalishi va iqtisodiy rayonlashuv siyosati – bularning barchasi Markaziy Osiyoning tarixiy geografiyasida yangi sahifa ochdi. Ushbu maqola aynan 1920–1924 yillardagi ana shu murakkab jarayonlarni BXSR va XXSR misolida tahlil

qilishga qaratilgan bo'lib, tarixiy-geografik manbalar va arxiv hujjatlari asosida mintaqaning o'sha davrdagi hududiy-siyosiy tasvirini qayta tiklashni maqsad qiladi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XXSRning tashkil topishi, xo'jaligi, sanoati va maorifi.

XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi hisoblangan Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv tizimi chor bosqiniga qadar shakllangan holatda qolgan edi. Mamlakatda xon boshliq feodal amaldorlar, dindor ruhoniylar mamlakat boshqaruvida cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, iqtisodiy hayotda esa yerga egalik munosabatlari ham avvalgidek saqlanib qolgan edi [4, 215-b.]. 1917-yil kuzida Rossiyada yuz bergan oktabr to'ntarishi uning tasarrufida bo'lgan Xiva xonligidagi voqealarning rivojlanish jarayoniga ham o'z sezilarli ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Xonlikning siyosiy ahvoli ham shu paytdan boshlab keskinlashib bordi. Asfandiyorxon har qanday yo'l bilan o'z saltanatini saqlab qolishga intildi. Uning yuritgan kaltabin siyosati, ilg'or kuchlarni quvg'in va ta'qibga uchratishi, Yosh xivaliklar tashkilotini tor-mor etib, ularning rahbarlaridan o'ch olishi xonlikni tang ahvolga duchor etdi va xonlik tuzumiga qarshi aholining bosh ko'tarishi, haddidan oshgan amaldorlardan o'ch olish hollari yuz berdi. Masalan, Toshhovuz bekligining kambag'allari 1918-yil boshida beklik mahkamasiga hujum uyushtirdi. Bunday voqealar boshqa hududlarda ham qayd etildi. Xonlikda kechayotgan zulmdan norozi bo'lgan aholidan tashkil topgan qo'zg'olon dastalari ham harakatga keladi. Ularning umumiy soni 3 ming kishidan oshardi. Bu paytda Junaidxon qo'shinlari Rossiya armiyasiga qarshi kurashayotgan edi. 1920-yil 2-fevralda Xiva shahri Qizil askarlar tomonidan egallangandan so'ng Junaidxon qolgan-qutgan qo'shini bilan Qoraqum sahrosiga chekindi. Qo'g'irchoq xon Said Abdullo taxtdan voz kechdi. Shu tariqa, qizil armiya kuchi va madadi bilan Xiva xonligi ag'darildi Xorazm xalq sovet respublikasi (XXSR) deb e'lon qilindi va hokimiyat Muvaqqat inqilobiy hukumat qo'liga o'tdi [6, 48-49-b.]. 1920-yil 27-30-aprel kunlari bo'lib o'tgan xalq vakillarining I Butunxorazm qurultoyida Xiva xonligi tugatilganligi va Xorazm xalq sovet respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. O'sha paytda XXSRning maydoni 54000 km.kv. ni tashkil qilgan aholi soni BXSrga qaraganda nisbatan kamroq ya'ni 900000 kishi bo'lgan. Ma'muriy boshqaruv shaki unitar respublika ko'rinishida edi. Ma'muriy markaz sifatida Xiva shahri tanlangan. Davlat ma'muriy-hududiy tuzilishi jihatdan 4 ta muxtor viloyatdan: Urganch- markazi Yangi Urganch; Xiva viloyati-markazi Xiva; Turkman viloyati-markazi Toshhovuz; Qizg'iz-qoraqalpoq-Markazi Xo'jayli kabi shahrlardan iborat bo'lgan [2, 113-b.]. Qurultoy XX asrning muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiya kirish so'z, 13 bob, 37 moddadan iborat edi [6, 244-b.].

Konstitutsiyaning kirish qismining 2-moddasida Xivada sanoat yaxshi rivojlangani, sinfiy kurash ham Xiva xalqi orasida avj olmaganligi ta'kidlanib, davlat qurilishi haqidagi bobning 5-moddasida "... mamlakatni barcha Xorazm xalqi o'z vakillari orqali bilvosita boshqaradi", deb qayd etiladi. Oliy organ yilda bir marotaba chaqiriladigan qurultoy bo'lib, u mamlakatni boshqaruvchi Xalq Nozirlar Sovetini saylaydi. Mahalliy hokimiyat organlari rayon soveti - tuman sho'rolari bo'lib, ularning mamlakatdagi soni 22 ta edi. Qurultoy va mahalliy sho'rolarga 18 yoshga to'lgan har bir fuqaro saylash va saylanish huquqiga ega bo'lib, faqat aksilinqilobchilar, xoinlar, aqli noqislar, xon, uning oilasi, katta yer egalari, yirik ruhoniylar, umuman, Konstitutsiyaga qarshi chiquvchilar saylov huquqidan mahrum qilingan edi [9, 454-b.].

Muvaqqat inqilobiy hukumatning dastlabki qabul qilgan qarorlaridan biri - "Xonning mulki to'g'risida"gi qonun bo'ldi. Bu qarorga ko'ra xon va uning qarindoshlariga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk tortib olinib, hukumat ixtiyoriga topshirildi [7, 395-b.]. 1921-yilning 4-11-dekabrda Xiva shahrida bo'lib o'tgan yersiz va kam yerli dehqonlarning birinchi qurultoyi ularni yer-suv, ish hayvonlari, mehnat qurollari, urug'lik-don, ssuda bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qurultoyda oziq-ovqat solig'i yersiz va kam yerli dehqonlar ittifoqining asosiy masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi banki tashkil qilish masalasi ham ko'rildi. Ushbu bankning asosiy vazifasi yersiz va kam yerli dehqonlarga qishloq xo'jalik asbob-uskunalar, ish hayvonlari, urug'lik va boshqa narsalalar olishi uchun qisqa muddatli qarz berishning tashkil qilishdan iborat edi. 1922-yil dekabrda qishloq xo'jaligida yagona soliq tizimi joriy qilindi. 1923-yil iyunda hunarmandchilik va sanoat sohasidagi soliqlar ham bir tizimga solinib, davlat sanoat solig'i joriy qilindi. Yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ning e'lon qilinishi XXSRda bir qancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Masalan, paxta maydonlari hududi 1921-yildagi 10000 tanob (1 tanob - 2500 kv.m yer)dan 1924-yilda 85000 tanobga, hosildorlik 100000 pud (1 pud - 16.38 kg)dan 800000 pudga ko'tarildi. Sanoatda 1924-yilga kelib, 6 ta paxta tozalash zavodi 10 ta g'isht zavodi yog' zavodi qog'oz va shisha zavodlari qurildi [7, 397-b.].

"Sovet Rossiyasi Xorazm Respublikasiga o'ta zarur bo'lgan, u ehtiyoj sezayotgan zaruriy mahsulotlar bilan ta'minlab turgan. Masalan 1921-iyunida Turkkomissiya RSFSR hukumati nomidan XXSRga 10mln rubl mablag' ajratgan" deb ta'kidlaydi K.Muxamadberdiyev. RSFSRdan yuborilgan mutaxassislar yordamida ko'pgina tiklash ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Xon-obi, Qilichniyozboy, Shovot kanallari tiklangan, Xivadagi 1917-yildan buyon ishlamayotgan paxta tozlash zavodi qayta ta'mirlanib, 1921-yilning 1-muddatning o'zidayoq 100 ming puddan

ortiq paxta xomashyosi qayta ishlangan. 1922-yildan boshlab Xorazmning paxta xomashyosini yetishtirib berishda asosiy hudud bo'lishni rejalashtirgan RSFSR unga iqtisodiyotini tiklashda "ko'mak" bera boshladi [2, 51-b.]. 1923-yil 19-fevralda Rus-Xorazm Davlat paxtachilik shirkati tashkil etildi. Shirkatning asosiy kapitali 500 ming so'm bo'lib, Xiva, Xonqa, Xazorasp, Gurlan, Mang'it, Toshhovuzda jami 6 ta paxta punkti va zavodlari yangidan ishga tushirildi. XXSRda 1923-yilda ham paxta sotish va yetishtirish 1915-yildagi darajaga yetmagan. 1915-yilda Xiva xonligi Rossiyaga 1700 ming pud paxta sotgan bo'lsa, 1923-yilda respublika 30 ming pud paxta sotgan. Buning sabablaridan biri xomashyoning past bahoda narxlanishidir. 1923-yil 19-iyunda Glavxlopkomga Xorazmda 446 vagon (2508 kip) paxta sotildi. 1 kip paxta 7-8 pudga to'g'ri kelishi hisobga olinsa, o'sha yili Rossiyaga 18500-20000 pud yoki 296-320 tonna atrofida paxta sotilganligini ko'rish mumkin [3, 54-55-b.].

1920-yilda "Qazu" (suv inshootlarini tozlash) an'anasini tiklash bo'yicha yangi qonun qabul qilindi. Shunga binoan bir necha 10000 o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qisman turkmanlardan iborat dehqonlar hashar yo'li bilan irrigatsiya tizimlarida tozalash ishlarini olib bordilar. Amudaryo etagidan uzunligi 120 km ga teng 12 ta damba to'siqlari qurildi. Bu ishlarda 45 mingdan ortiq kishi qatnashdi [5, 51-b.].

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilgan dastlabki kunlardan oq, ya'ni 1920-yil 5-aprelda sobiq xon saroyida Madaniyat va Ma'rifat saroyi tashkil etildi. Hududda yangi usul maktablari tashkil etishga ahamiyat berila boshlandi. Xiva, Urganch, Darg'onotada maktablar ochildi. Bu maktablarda ta'lim o'zbek va turkman tillarida olib borilgan. Shuningdek Xivada xalq muzeylari ochildi hamda unda unda xalq amaliy san'ati namunalari o'rin oldi. Yangi Urganchda o'z kutubxonasiga ega klub tashkil etildi. Uning tarkibida tuzilgan badiiy to'garak keyinchalik xalq teatrining yaralishiga asos bo'lgan. Bunday badiiy to'garaklar keyinchalik Yangi Gurlan, Qo'ng'iro't va Xorazmning boshqa tumanlarida ham tashkil etilgan. 1920-yilda may-iyun oylarida harbiy qismlarda jami 7 ta maktab ochilib, ular o'rtasida o'zbek tilida ta'lim olib borilgan maktablarda 300 ga yaqin qizil armiyachilar tahsil olgan. 1920-yil iyul oyiga kelib, maktablar soni 9 taga, o'quvchilar soni 410 taga yetgan. Xorazm harbiy qismlarida jami 4 ta spektakl qo'yib berilgan.

1920-yil yozida madaniyat va maorif nozirining 18 yoshgacha bo'lgan qizlarni ro'yxatga olish to'g'risidagi qaroridan norozi xalq va xivalik ulamolarning Olloqulixon madrasasi oldiga to'planib, hali ham ruslarning davlat boshqaruvidagi ta'siri kuchliligi haqidagi norozilik chiqishlari bahonayi sabab bo'lib, Xivaning so'nggi xoni Said Abdullaxon va uning yaqinlari, ko'plab ulamolar Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hududidan chiqarib yuborilib, hammasi Rossiya va Ukraina

hududlariga surgun qilingan. Bu Xorazm Respublikasida qizil askarlar tomonidan amalga oshirilgan qatag'onlikning dastlabki ko'rinishlaridan biri bo'ldi.

1920-yilning 15-23-mayda Butunxorazm xalq vakillarining II qurultoyida qonun chiqaruvchi oliy organ - XXSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (raisi Muhammadrayim Olloberganov) va ijro qiluvchi organ XXSR Xalq Nozirlar Sho'rosi (raisi qoraqalpoq Menglixo'ja Ibniyaminov) tashkil qilindi. Qurultoyda Yosh xivaliklar harakati xalqqa qarshi qaratilgan deb qoralandi. Bu qurultoyda yangi qabul qilingan XXSR Konstitutsiyasi matniga Turkiston komissiyasining tazyiqi bilan ko'plab moddalar majburan qo'shildi. Xorazmliklarning saylov huquqi ancha cheklandi. Biroq qurultoyda milliy masalaga katta e'tibor qaratildi. XXSR MIQ huzurida turkmanlar bo'limi va qozoqlar byurosi tuzildi. Keyinchalik shu asosda XXSRda maxsus qozoq-qoraqalpoq viloyati tashkil qilindi [7, 397-400-b.].

Xorazm respublikasining tashqi aloqalarini amalga oshirishda Amudaryo katta rol o'ynaydi. Xorazm Amudaryo va Orol dengizi orqali O'rta Osiyoning asosiy temiryo'li Krasnovodsk-Samarqand temiryo'li bilan bog'langan. Shu yo'llar orqali Xorazm o'z mahsulotlarini chetga yuborib, chetdan mahsulotlarni qabul qilgan. 1921-yil 25-sentyabrdagi kelishuvga asosan, Amudaryo flotiliyasi o'z poroxodlari va barjalarini Xorazm va Buxoro XSRLariga qaytarmaslik sharti bilan berdi. Ushbu kelishuvning I bandida quyidagilar ko'rsatilgan. "RSFSR o'zining Xorazm va Buxoro xalqlariga nisbatan do'stona siyosatiga asoslanib o'zining Amudaryo flotiliyasidan ushbu respublikalar maqsadlari uchun voz kechadi". RSFSR 1922-yil fevral oyida Xorazm Respublikasi uchun 2 mlrd rubl mablag' ajratadi. 1923-yilda faqat irrigatsiya tadbirlari uchun 1476712 rubl mablag' ajratildi.

1921-yil 2-noyabr va 27-noyabrda V.Lenin tomonidan imzolangan "Turkiston va Ozarbayjon respublikalarida paxtachilikni rivojlantirish to'g'risida"gi qarorga ko'ra Xorazmdagi paxta maydonlari 1921-yildagi 3000 desyatinadan 1923-yilga kelib 9500 desyatinaga yetkazilgan [2, 72-b.].

XXSR va BXSRL o'rtasida diplomatik, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorliklar ancha rivoj topgan edi. Ushbu mamlakatlar o'rtasidagi tashqi o'zaro aloqalar 1922-yil fevral oyi boshida imzolangan shartnomaga asosan amalga oshirilgan.

XXSRning tashqi aloqalari masalalari hali milliy istiqlol g'oyasi ruhida, istiqloldan so'ng mukammal, to'liq o'rganilmagan. Ushbu mavzuda ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borish, mavzuning ochilmagan qirralarini tadqiq etish zamonaviy tarixshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [2, 77-80-b.].

BXSRLning tashkil topishi, xo'jaligi, sanoati va maorifi.

Ma'lumki, 1920-yil 10-avgustda Kogonda Ahmadjon Abdusaidov rahbarligida Butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi va Fayzulla Xo'jayev raisligida Xalq Nozirlar

Kengashi tashkil etildi. Qizil armiya Eski Buxoroni 1920-yil 2-sentyabrda ishg'ol etgandan keyin bu yangi hokimiyat idoralari Kogondan Buxoro shahri yaqinidagi a'mirning yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosaga ko'chib o'tdi [8, 324-b.]. 1920-yil 14-sentyabrda bo'gan Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi, Muvaqqat Butunbuxoro inqilobiy qo'mitasi va Buxoro kommunistik partiyasi Markaziy komitetning umumiy yig'ilishida Abdulqodir Muhitdinov raisligida 9 kishidan iborat Butunbuxoro Markaziy inqilobiy Qo'mitasi (markaziy Revkom) va Fayzulla Xo'jayev raisligida 11 kishidan iborat hukumat - Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi shakllandi. Butunbuxoro Markaziy Inqilobiy Qo'mitasi tarkibiga Muinjon Aminov, Olimjon Akucherin, Abdulhamid Oripov, Sobir Yusupov, Mukammil Burxonov, Hoji Hasan Ibrohimov, Fayzulla Xo'jayev va Muhammadjon Qulmuhammedov a'zo qilib kiritildi [7, 376-377-b.]. 1920-yil 6-8-oktyabr kunlari amirning yozgi saroyi bo'lmish Sitorai Mohi Xosada chaqirilgan Butunbuxoro Xalq vakillarining I qurultoyida Buxor Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Bu yangi davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik respublikasi edi. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida o'rta asrchilik an'analaridan meros qolgan amirlik Buxorosini demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushdi. Qurultoyda davlat hokimiyatining oliy organi - Butunbuxoro Markaziy inqilobiy Qo'mitasi va dastlabki hukumat tarkibi - Buxoro Xalq Nozirlar sho'rosi uzil-kesil tasdiqlandi [7, 378-b.].

1922-yil 30-sentyabrda Butunbuxoro Markaziy Inqilobiy Qo'mitasi raisi Abdulqodir Muhitdinov tomonidan imzolangan "Yer to'g'risida"gi qonunda sobviq amir, uning qarindosh-urug'lari va beklar qo'lidagi barcha mol-mulklar va yer umumxalq mulki deb e'lon qilindi. Qonunga ko'ra, aholi xiroj, mushtbar, amlok va boshqa soliqlardan ozod etildi. Qonun matni oradan 2 oy o'tgach - 1920-yil 21-noyabrda "Buxoro axbori" gazetasida e'lon qilindi. Mazkur qonun agrar sohadagi dastlabki hujjat bo'lib, unda BXSR iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan edi [7, 380-b.].

Buxorodagi agrar munosabatlarda diniy tashkilotlarning yer egaligi, vaqf yerlari masalasi muhim o'rin egallagan. BXSRdagi vaqf mulklari - yerlar va ko'chmas mulk, savdo, sanoat va maishiy korxonalar ikki turkumga - diniy vaqflar va madaniy-ma'rifiy vaqflarga bo'linadi. Respublikadagi vaqf mulklari 488265 tanobni tashkil qilgan. Shundan 327037 tanob madaniy-ma'rifiy vaqf yerlari, 161228 tanob esa diniy vaqf yerlari tashkil qilgan. BXSR MIQ 1920-yil 24-oktyabrda masjidlar va ularning vaqf mulklari to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Qarorga ko'ra, barcha masjidlar vaqf boshqarmasi ixtiyoriga o'tkazildi. 1921-yil avgustdagi rasmiy ma'lumotlarga qaraganda Buxoroda 208 ta masjid va 215 ta madrasaga qarashli 200 ta vaqf muassasasi ro'yxatga olingan [7, 384-385-b.]. A.Fitrat 1922-yilning yozida 19

moddadan iborat bo'lgan "Vaqf haqida loyiha"ni ishlab chiqdi. Unda vaqfchi dehqonlardan ijara pullarini olmaslik, ularni barcha soliqlardan ozod etish orqali dehqonchilik uchun ajratilgan yerlar salohiyatini tiklash taklifini ilgari surdi[10. 9-19b.]. Bu loyiha ustida munozaralar qizib, jamoatchilik muhokamasidan o'tgan. "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro"ning ko'pgina sonlarida o'sha masalada fikr-mulohazalar bayon qilingan. Maqolalardan birida: "Agarda diniy islom tomonidan va'z etilgan vaqflar... o'rinli sarf qilinib maktab va matbaalar ochilsa, gazeta va majmualar chiqarilsa, hozirgi kunda sharq bu qadar tubanlik va haqoratda qolmas edi... alalxusus, Sharq hozirgi kundagi kabi piyoda eshak ustida yurmasdan, quyosh kabi havoda uchib yurur edi" deb yozilgan.

BXSRning xo'jaligini suv bilan ta'minlash muammosi ko'p jihatdan Turkiston ASSR biln bog'liq edi. Hukumat esa suv taqsimotini hal qilish maqsadida "3 kishilik", "5 kishilik" komissiya hay'atlari tuzgan. XAbarlarning birida "1921-yil shartnomasida Samarqandga qarashli 72885 desyatina yer Zarafshondan sug'orilmaydur deb ko'rsatilgan ekan. Lekin tekshirishlar natijasida anglashilgankim, ul yerlar Zarafshon suvi bilan sug'orilayotgan ekan. Shuni ko'zda tutib, Xalq nozirlar sho'rosi buxoro hisobida turgan suvning hammasini yuborilishini so'ramoqqa qaror berdi"- deyiladi. Keyinchalik, Kattaqo'rg'on hukumati ixtiyorida bo'lgan Narpaydaryo ustidan nazorat Buxoroga o'tkaziladi. Lekin bu biulan masala hal bo'lmaydi. BXSRda "suv muammosi" kun tartibida muhim masalaga aylanadi [10, 6-b.].

Respublika yillarida qishloq xo'jaligining rivojlanishiga suv tanqisligidan tashqari boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatgan. Buxoro Respublikasi hukumati o'rnatilgandan keyin dastlabvki 2-3 yil ichki urushlar bilan o'tdi. Bu paytda dehqonlarning asbon-uskunolari eskirib qolgan, hosildort yerlar tashlandiqqa aylangan edi. Chorvachilikda esa mollar soni kamayib ketgan edi. O'sha davr gazetalarida "1890-yilda butun mamlakatda turli nasl qo'y va echkilar 800000 adad bo'lsa, 1916-yilda 2.5 mlnga qadar oshg'ondur. Bugun (1923) qo'y va echkilar soni 500000 dan ortiq emasdir"- deyiladi. Respublikada chorva mollarining kamayib ketishi 85-90 foizi ziroatchilik bilan shug'ullanadigan aholining moddiy ahvolini ayanchli holga tushib qolishiga sabab bo'ldi. Bejizga hukumat boshlig'i F. Xo'jayev: "Biz butun kuchimizni sarmoyadorlar urushi va doxiliy urush natijasida xarob bo'lgan qishloq xo'jaligini isloh etishga va jumhuriyatning orqa tayanchi hisoblangan dehqonlarining moddiy va ma'naviy hayotini yaxshiroq etishga sarf qilishg'a tegishlimiz"-deb fikr bildirmagan edi [10, 7-b.].

Sanoat mollarining narxi 1923-yilga kelib quyidagicha bo'lgan: "Xom ipakning o'n qadog'i 3 mln so'm, 1 arshin chit 12 mln so'm, har bir arshin satin 18-20 mln

so'm, ko'k va qora choyni har bir pudi-2 mlrd 200 mln so'm, bir yashik gugurt 600 mln so'm, 1 pud qand 600 mln so'm, kerosin - lampa yog'i 1 pudi 60 mln so'm, sovunni 1 qadog'i 8 mln so'm". Respublikada qorako'l terilar yetishtirish va ularni xorijga chiqarish ham keskin kamayib ketgan edi. "XX asrning boshlaridan 1913-yilga qadar amirlikda har yili 1500000 donadan 2000000 donagacha qorako'l terilari yetishtirilgan. 1920-yilga kelib bu raqam 200000 donaga tushib qolgan. Faqatgina 1922-yilda bu soha biroz jonlanib, 800000 dona qorako'l teri yetishtirilgan" - deyiladi "Ozod Buxoro" gazetasida. Shu yilning yozida Buxoro Respublikasining Moskvadagi vakiliga Germaniya hukumatidan maxsus murojaatnoma olinadi. Unda Germaniya hukumati bizning Moskvadagi vakilimizga murojaat qilib, qizil tilla yoki fabrika mashinalari va boshqa narsalar evaziga qorako'l teri so'ragan. "Hukumatimiz tarafidan Germaniyaning bu taklifi muvofiq, Germaniya so'rag'on narsalarni Moskvaga yubormoq choralariga kirishiladi" [11, 16-b.].

BXSR tashkil etilgandan so'ng, dastlabki oylardanoq za'naviy maorif tizimini vujudga keltirish choralari ko'rildi. Buxoro Respublikasi rahbarlari ushbu masalaga: "Maorif kerak, chunki hech bir mamlakat hech bir millat va hech bir inqilob maorifsiz yashamas, o'qimoq uchun maktab kerak, maorif kerak, kitob kerak-bular haqiqat"-tarzida qaradilar [11, 71-b.]. 1920-yil oxiri va 1921-yil boshlarida maorif tizimini yo'lga qo'yish maqsadida turli shakldagi ta'lim muassasalari ochilgan. "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalardagi ma'lumotlarga tayanib, respublikada faoliyat boshlagan mazkur muassasalarni nira necha tarmoqlarga ajratish mumkin: poytaxt Buxoro shahri va viloyatlarda ibtidoiy va umumiy ta'lim beradigan maktablar, namuna maktablari, ustaxona maktablari, xotin-qizlar maktablari, hunar maktablari, musiqa, duxovoy orkestr maktablari, siyosiy maktablar, rus tili maktablari, dorulmuallimin, xotin-qizlardan muallimlar yetishtirish uchun 6 oylik ta'lim-tarbiya kurslari, diniy ta'lim beradigan eski usul maktablari, shu sohada oliy ta'lim beruvchi mullavachchalar tayyorlaydigan dorulilm, savodsizlikni tugatish maktablari, kechki kurslar va boshqalar. "Buxoro axbori"ning 1920-yil 9- sentabrda bosmaxonadan chiqqan 1-sonida "Maqsad va maslak" nomli muharririyat tomonidan bosilgan yirik maqolada: "Gazetaning maqsadi buxoroliklarga inqilobimizning va uning amallarini, sabablarini, uning qoida va fazilatlarini bir suratda etib, Buxoroning obodlig'iga xizmat etmak" kabi fikrlar mavjud. Gazeta ilk sonidagi ushbu maqolada bundan keyin Buxoro hayotida ro'y beradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-adabiy, ma'rifiymadaniy o'zgarishlarga e'tibor qaratilishi ham alohida ta'kidlanadi. To'rt sahifada bosilgan "Buxoro axbori" gazetasining dastlabki soni bilan batafsil tanishilganda, uning 1-sahifasi yuqori qismida "Buxorolik vatandoshlar! Ozod Vataningiz muborak bo'lsun!" shiori qayd qilingan. Keyingi barcha sonlariga sovet

davri matbuoti uchun an'ana bo'lib qolgan "Butun dunyo yo'qsullari birlashingiz!" shiori asos qilib olingan [2, 45-b.].

1922 o'quv yilidan boshlab Buxoro shahrida birinchi dorulmuallimin ochilgan. Yangi Chorjo'y shahrida ikkinchi dorulilm ham ish boshladi. "Yangi Chorjo'yda sobiq amir hukumati tarafidan solingan Nikolay gimnaziyasi (Rossiya podshosi Nikolay nomi bilan atalgan) o'quv yurti binosida o'tgan sana dorulmuallimin ish boshlag'on edi. Bunga maorif nazorati tomonidan Fayzulla Xo'ja ismi berilib ochilish marosimida hukumat boshliqlari qatnashdi"-deyiladi gazeta xabarlarida. 1920-yil 9-sentabrda, ya'ni amirlik tuzumi ag'darilganidan roppa-rosa bir hafta o'tib, BXSRning markazi Eski Buxoro (hozirgi Buxoro) shahrida o'zbek adabiy tilida, isloh kilingan arab imlosida "Buxoro axbori" nomi bilan gazeta bosildi¹. "Buxoro axbori"ning 1920-yil 9-sentabrda bosmaxonadan chiqqan 1-sonida "Maqsad va maslak" nomli muharririyat tomonidan bosilgan yirik maqolada: "Gazetaning maqsadi buxoroliklarga inqilobimizning va uning amallarini, sabablarini, uning qoida va fazilatlarini bir suratda etib, Buxoroning obodlig'ig'a xizmat etmak" kabi fikrlar mavjud. Gazeta ilk sonidagi ushbu maqolada bundan keyin Buxoro hayotida ro'y beradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-adabiy, ma'rifiymadaniy o'zgarishlarga e'tibor qaratilishi ham alohida ta'kidlanadi. To'rt sahifada bosilgan "Buxoro axbori" gazetasining dastlabki soni bilan batafsil tanishilganda, uning 1-sahifasi yuqori qismida "Buxorolik vatandoshlar! Ozod Vataningiz muborak bo'lsun!" shiori qayd qilingan. Keyingi barcha sonlariga sovet davri matbuoti uchun an'ana bo'lib qolgan "Butun dunyo yo'qsullari birlashingiz!" shiori asos qilib olingan [2, 45-b.].

1921-1922 yillar davomida gazetada muharrirlik qilgan mashhur adib Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon Buxoro Sovet Xalq Respublikasining hukumat boshqaruvi, ichki siyosiy hayoti va xalqaro ahvol masalalarida bir qator maqolalar yozgan. Uning «Hukumat qurultoyi» maqolasida «Qurultoy nima?», «Qurultoyning xalq hayotida qanday ahamiyati bor?» degan savollarga sodda va ravon qilib, oddiy mehnatkash xalq tushunadigan tarzda javob beriladi. «Qurultoylar azaldan bo'lib, bu majlisga mamlakatning buyuklari, xalq tarafidan saylangan oqsoqollari, xalq foydasini tushungan olimlar to'planardilar. Unda hukumat siyosati, idorasi, islohiyati, to'g'risida gapiriladi, qonunlar yasalar (qabul qilinadi) edi, kabi fikrlar qayd etilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi o'zbek xalqi davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Sharqdagi dastlabki xalq respublikalari bo'lgan bu davlatlar qisqa muddat ichida katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. O'rta asrlarga xos monarxiya tuzumi va qoloqlikdan, yakka shaxsning hukmronligi ustuvor bo'lgan istibdoddan, diniy mutaassiblik va

jaholatdan demokratik o'zgarishlar tomon katta qadam tashlandi. Taraqqiyparvarlar va ziyolilar (asosan Yosh buxoroliklar va Yosh xivaliklar)dan tashkil topgan Buxoro va Xorazm hukumatlari mamlakatda demokrartik islohotlarni qaror topdirishda juda qiyin sharoit va vaziyatlarda ish olib borishlariga qaramasdan, o'z faoliyati davomida ayrim xato va kamchiliklarga yo'l qo'ysa-da, doimiy ravishda bolsheviklarning zug'umi va Markazning tazyiqi ostida siyosat yuritishga majbur bo'lgan. 1924-yil noyabrda BXSР va XXSR hududlari O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish doirasiga tortildi hamda ular butunlay tugatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sulaymon A. Hukumat qurultoyi // *Buxoro axbori*. 1921 yil, 10 iyul, №44.
2. Yo'ldosheva B.M. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tarixshunosligi. – Buxoro: Durdona, 2023. – 114 b.
3. Inlibrary.uz. 1920–1924 yillarga oid ilmiy maqola. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/sies/article/download/51088/51438/61351>
4. Murtazoyeva M. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2005. – 536 b.
5. Oblomurodov N., Hazratqulov A., Tolipov F., Tursunov N. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2011. – 347 b.
6. Usmonov Q., Siddiqov M. O'zbekiston tarixi (1917–1991). – Toshkent: Sharq, 2013. – 254 b.
7. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016. – 492 b.
8. Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda (1900–1939). – Toshkent: Fan, 2024. – 751 b.
9. O'zbekiston tarixi. X jild: Buxoro tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 630 b.
10. O'zbekiston tarixi. XI jild: Xorazm tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 628 b.
11. Hayitov Sh., Badriddinov S., Raxmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat va madaniy hayot. – Buxoro, 2005. – 154 b.
12. Hayitov Sh., Raxmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Germaniya: hamkorlikning tarixiy lavhalari. – Toshkent: Fan, 2004. – 101 b.
13. Mirjonovna Y. B. Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem? // *Academicia Globe*. – 2021. – T. 2. – №. 01. – C. 10-17. Mirjonovna Y. B. The influence of arab caliphate on formation of bukhara urban culture. – 2021.
14. Yavmutov D. S., Yuldosheva B. M. Issues of assessment of the natural resource potential of the region for recreational purposes // *Modern Science and Research*. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 77-86.